



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 08 | pp. 93-101 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUDLARNING MUTANOSIB BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYALARING O'RNI



Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich

Buxoro muhandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti

t.t.xojiyev@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarining mutanosib va barqaror rivojlanishini ta'minlashda investitsiyalarning o'rni tadqiq etiladi. Mamlakatimizda davlat va xususiy investitsiyalar hududiy tafovutlarni kamaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Bunga ko'ra, sanoat, qishloq xo'jaligi, infratuzilmalarni rivojlantirish kabi asosiy sohalarga e'tibor qaratib, ularning kambag'allikni qisqartirish, yangi ish o'rirlari yaratish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari investitsiyalarni jalb etish orqali hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Mutanosib barqaror rivojlanish, investitsiya, sanoat, kambag'allikni qisqartirish, qishloq xo'jaligi, infratuzilma.

Kirish

Hududlarning muvozanatli va barqaror rivojlanishi bugungi kunda global va milliy siyosatning dolzarb mavzularidan biriga aylangan. Hududlararo iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etish, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni, atrof-muhitni muhofaza qilishni va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun davlat va xususiy investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada investitsiyalarning muvozanatli va barqaror hududiy rivojlanishga qanday hissa qo'shishi, ular qaysi sektorlarni rivojlantirishda muhim ekanligi va bu jarayonda duch kelinadigan asosiy muammolar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 sentabrdagi PF-158 sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish belgilangan.¹ Bunga faqat ichki bozor bilan erishib bo'lmaydi, asosiysi – xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va eksportni ko'paytirish zarur. So'nggi olti yilda

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgan. O'tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o'sgan. Biroq tovarlar eksportida o'sish bo'lмаган. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan ishlar lozim darajada tashkil etilmagan. Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo'yicha o'zlashtirish boshlanmagan. Hududlarda moliyalashtirilishi to'liq yakunlangan 8 trillion so'mlik qariyb mingta loyiha haligacha ishga tushmagan. Prezidentimiz bu boradagi muhim vazifalarga to'xtalib, tuzilmaviy islohotlarni ma'lum qildi. Joriy yilda maxsus iqtisodiy hududlarda 309 ta yirik loyihani amalga oshirib, 40 mingta ish joyi yaratish mumkinligi qayd etildi.²

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-dekabrdagi PQ-459-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining asosiy maqsadi O'zbekistonning 2023-2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Bu dastur doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlariga, jumladan sanoat, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilmalarga qaratilgan yirik investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Ushbu qaror mamlakatni innovatsion rivojlanishga yo'naltirish, investitsiyalarni kengaytirish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish vazifalarini hal qilishni ko'zda tutadi.³

Investitsiyalar, xoh davlat manbalaridan, xoh xususiy korxonalardan yoki xalqaro tashkilotlardan bo'lsin, hududiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchidir. Ular infratuzilmani yaxshilash, iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash, inson kapitalini rivojlanish va barqarorlikka erishish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarni ta'minlaydi. Investitsiyalarning asosiy vazifalaridan biri infratuzilmani yaxshilashdir. Yo'llar, temir yo'llar va aloqa tarmoqlari rivojlanmagan hududlarni asosiy iqtisodiy markazlar bilan bog'lab, savdo, harakatchanlik va bozorga kirishni osonlashtiradi. Infratuzilmasiz, chekka yoki qishloq hududlar iqtisodiy o'sishni ta'minlay olmaydi, chunki ular bizneslarni jalb qilish va aholining yashash sifatini oshirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Infratuzilmani yaxshilash xarajatlarni kamaytiradi va bizneslar uchun bozorga kirishni osonlashtiradi, bu esa rivojlanmagan hududlarda iqtisodiy faoliyatni kengaytirishga va ish o'rinalarini yaratishga yordam beradi.⁴ Transport va logistika infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar, ayniqsa, chekka hududlarda katta ta'sir ko'rsatib, bozorga kirishni yaxshilaydi va transport xarajatlarini kamaytiradi.

Ko'pgina rivojlanmagan hududlar asosan qishloq xo'jaligi yoki qazib olish sanoatiga tayanadi, bu esa bozor tebranishlariga sezgir va ish o'rinalari yetishmasligiga olib keladi. Hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiyalashga qaratilgan investitsiyalar bardoshli va dinamik iqtisodiyotni shakllantirish uchun juda muhimdir. Yangi sanoatlarga, jumladan, ishlab chiqarish, qayta tiklanuvchi energiya va turizm sohalariga investitsiyalar kiritish orqali ish o'rinalari yaratiladi, mahalliy aholining malakasi oshadi va an'anaviy sohalarga qaramlik kamayadi.

² <https://president.uz/oz/lists/view/6975>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6329448>

⁴ World Bank- *Infrastructure and Development: A Survey of Recent and Upcoming Issues*.36-b, World Bank. 2021-y.

Tadqiqotchi Rodríguez-Pose investitsiyalar regional tengsizliklarni kamaytirishda muhim ekanligini ta'kidlaydi: "Iqtisodiy imkoniyatlar va resurslarning hududiy taqsimoti ko'pincha nomutanosib bo'lib, bu mintaqaviy tengsizliklarga olib keladi. Strategik investitsiyalar ushbu imkoniyatlarni qayta taqsimlashga yordam beradi va barcha hududlarda inklyuziv va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi."⁵

Infratuzilma rivoji hududiy rivojlanishda muhim o'rinni tutadi, ayniqsa kam rivojlangan hududlar uchun. Transport, energetika, suv ta'minoti va aloqa tarmoqlariga investitsiyalar mintaqalarni milliy va global iqtisodiyotga integratsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, tovarlar, xizmatlar va insonlar harakatini osonlashtiradi. Jahon Banki infratuzilmaga qilingan investitsiyalarning ahamiyatini ta'kidlab, shunday deydi: "Infratuzilmaga qilingan investitsiyalar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, bog'liqlikni yaxshilaydi va rivojlanmagan hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi, ularni kengroq iqtisodiy tizimlarga integratsiya qiladi."⁶ Bu investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, kambag'allikni kamaytiradi va keng mintaqalar uchun bozor va ish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday sarmoyalar transport, logistika va savdo yo'llarini rivojlantirish bilan bir qatorda, elektr tarmoqlari, raqamli infratuzilma va yashil energiya loyihalarini ham qamrab oladi.

Iqtisodiy diversifikatsiyaga qaratilgan investitsiyalar muvozanatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Faqat bitta soha, masalan, qishloq xo'jaligi yoki resurslar qazib olishga tayanadigan hududlar iqtisodiy zarbalarga nisbatan ko'proq sezgir bo'ladi. Yangi tarmoqlarga, jumladan texnologiya, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb qilish orqali hududlar iqtisodiy mustahkamlikka erishadi va diversifikatsiyalashgan iqtisodiy bazaga ega bo'ladi.

Iqtisodiy diversifikatsiya mintaqaviy zaiflikni kamaytirishda muhim vositadir, ayniqsa tabiiy resurslarga qaram bo'lgan iqtisodiyotlarda. Van der Ploeg ta'kidlaganidek, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash bir necha sohalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy zarbalarga nisbatan barqarorlikni oshiradi. Bu strategiya tovar narxlari o'zgarishiga bog'liq xavflarni kamaytiradi va yangi ish o'rnlari yaratadi.⁷

Tahlil va natijalar

Investitsiyalar mamlakatimiz hududlarida muvozanatli va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy farqlarni kamaytirishga yordam berib, infratuzilma, sanoat va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekistonda hududlarning muvozanatli va barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qator investitsion dasturlar amalga oshirilmoqda. Hukumat infratuzilmani modernizatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yashil texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy farqlarni kamaytirishga qaratilgan harakatlarni kuchaytirmoqda. Asosiy maqsad chekka va kam rivojlangan hududlarni iqtisodiy markazlarga yaqinlashtirishdir.

⁵ Crescenzi, R., & Rodríguez-Pose, A. *Innovation and Regional Growth in the European Union*. 27-b, Springer, 2011-y.

⁶ World Bank Infrastructure Development Report. 106 b, 2020-y.

⁷ Van der Ploeg Natural Resources Curse or Blessing, 71 b, 2010-y.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 229,3 trln. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 136,6 % ni tashkil etdi.⁸

1-jadval.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’ati (2024-yil yanvar-iyun)⁹



Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,6 % yoki 173,3 trln. so‘m investitsiyalar jalb qilingan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 24,4 % yoki 56,0 trln. so‘m moliyalashtirildi.

2-jadval.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o‘sish sur’atlari dinamikasi, % (yanvar-iyun, trln.so‘mda)¹⁰

⁸ www.stat.uz

⁹ https://stat.uz/img/chorak_natijalar/yanvar-iyun/uz/4_investitsiya-va-urilish-ishlari_p68540.pdf?preview=1


¹⁰ Muallif ishlchanmasi



Asosiy kapitalga investitsiyalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. MTO (methanol to olefin) texnologiyasi asosida gaz-kimyo majmuasi qurilishi, Navoiy tog'-metallurgiya kombinatida asosiy va qo'shimcha ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirish, Andijon viloyatida sement ishlab chiqarishini tashkil etish, paxtani qayta ishlovchi mashina uskunalarni modernizatsiya qilish, Samarqand viloyatida mukammal mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish kimyo majmuasi qurilishi va boshqalar kabi yirik investitsiya loyihalari natijasida ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 68,0 trln. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarining 29,6 % i o'zlashtirildi.¹¹

3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibining hajmi va ulushi, 2024-yil yanvar-iyun oylarida (trln. so'mda)¹²



Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hududiy tarkibida eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand viloyatida – hududdagi jami investitsiyalarining – 6,2 % ini, Sirdaryo viloyati – 5,6 % va Qoraqalpog'iston Respublikasida – 5,2 % miqdorida kuzatildi.¹³

¹¹ www.stat.uz

¹² Muallif ishlanmasi

¹³ www.stat.uz

4-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, 2024-yil yanvar-iyun oylarida

	Jami investitsiyalar, mlrd.so'mda	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)							
		Respublika bvudieti	Korxona va tashkilotlar mablag'i	Aholi mablag'i	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lar		
O'zbekiston Respublikasi	229 334,8	3,6	18,3	6,1	68,3	0,4	0,8	2,5	
Qoraqalpog'ston Respublikasi	9 456,1	5,2	10,8	7,9	72,5	0,3	0,1	3,2	
<i>viloyatlar:</i>									
Andijon	11 752,1	4,3	14,5	5,2	72,2	0,4	1,8	1,6	
Buxoro	24 423,5	1,4	7,4	7,7	82,5	-	-	1,0	
Jizzax	10 137,9	4,9	8,9	4,7	78,8	0,9	-	1,8	
Qashqadaryo	19 578,7	2,9	9,5	6,0	80,8	-	-	0,8	
Navoiy	16 890,5	1,0	13,4	5,5	78,6	-	-	1,5	
Namangan	16 708,7	2,5	14,5	6,8	75,0	-	-	1,2	
Samarqand	15 274,6	6,2	27,9	3,5	58,5	0,6	0,6	2,7	
Surxondaryo	9 808,0	4,1	5,6	11,2	75,0	2,2	0,3	1,6	
Sirdaryo	5 662,3	5,6	12,6	2,7	75,6	1,2	-	2,3	
Toshkent	31 921,2	3,5	17,3	6,7	66,2	0,5	2,6	3,2	

Farg'ona	10 575,4	5,0	17,6	10,4	61,4	0,6	0,1	4,9
Xorazm	6 015,4	2,1	15,2	18,5	60,3	1,3	0,8	1,8


Toshkent sh. 40 856,1 4,4 39,4 2,1 48,4 - 1,3 4,4

Korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan investitsiyalar bo‘yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 39,4 % ini tashkil etdi. Shuningdek, Samarqand viloyatida 27,9 % va Farg‘ona viloyatida 17,6 % ni tashkil etdi.

Jalb qilingan moliyalashtirish manbalari tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar alohida o‘ringa ega. Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami investitsiyalardagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar Buxoro – 82,5 %, Qashqadaryo – 80,8 % va Jizzax – 78,8 % viloyatlarida kuzatildi.¹⁴

5-jadval.


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajm va o‘sish sur’ati, mlrd.so‘mda, 2024-yil yanvar-iyun oylarida¹⁵



2024-yilning yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 58,2 % i respublikaning besh hududida, jumladan, Toshkent shahrida – 17,8 %, Toshkent viloyatida – 13,9 %, Buxoro viloyatida – 10,6 %, Qashqadaryo viloyatida – 8,5 % hamda Navoiy viloyatida – 7,4 % investitsiyalar o‘zlashtirildi.

¹⁴ www.stat.uz

¹⁵ Muallif ishlchanmasi

6-jadval.**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, jamiga nisbatan ulushi, % da¹⁶**

2024-yil yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 55,8 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,6 % ini tashkil etdi. Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 29,0 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 18,5 % ini qayd etdi.¹⁷

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, hududlarning barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta'minlash uchun investitsiyalarni jalb qilish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Bu esa infratuzilmani yaxshilash, inson kapitalini rivojlantirish va boshqaruvdagi shaffoflikni oshirishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shuningdek, kuchli mahalliy bozorlarni shakllantirish va yashil iqtisodiyot tashabbuslarini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zarur hisoblanadi. Moliyaviy rag'batlantirish, me'yoriy jarayonlarni soddalashtirish va davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish kabi choralar asosiy vazifalar qatoriga kiradi. Ta'lim va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish innovatsiya va raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlash uchun muhimdir. Shuningdek, barqaror

¹⁶ Muallif ishlanmasi¹⁷ www.stat.uz

iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan investorlarni jalb qilish uchun barqaror amaliyotlarni targ'ib qilish maqsadga muvofiq. Ushbu strategiyalarni amalga oshirish orqali hududlar uchun investitsiya kiritishning jozibador va barqaror muhitini yaratish, uzoq muddatli o'sish va barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/>
2. <https://lex.uz/>
3. World Bank- Infrastructure and Development: A Survey of Recent and Upcoming Issues.36-b, World Bank. 2021-y.
4. Crescenzi, R., & Rodríguez-Pose, A. Innovation and Regional Growth in the European Union.27-b, Springer, 2011-y.
5. World Bank Infrastructure Development Report. 106 b, 2020-y.
6. Van der Ploeg Natural Resources Curse or Blessing, 71 b, 2010-y.
7. <https://stat.uz/>
8. <https://www.mdpi.com>
9. Google Scholar, ResearchGate
10. T.T.Hojiyev "O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari" // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024-yil, may. №5-son. b.49-53.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

